

Uzbekistan Airways Indoneziyaga aviaqatnovlarni tiklamoqda

2023 20 Mart

Uzbekistan Airways joriy bahor-yoz mavsumida ham parvozlar geografiasini kengaytirishda davom etmoqda, uch yillik tanaffusdan so'ng Toshkent – Jakarta – Toshkent yo'nalishidagi reyslarni tiklamoqda. To'g'ridan-to'g'ri muntazam aviaqatnovlar 2023-yilning 26-aprelidan boshlab haftada bir marta, chorshanba kunlari amalga oshiriladi. Ta'kidlab o'tish joizki, Jakartadan Indoneziyaning Bali oroliga qulay tutashuv reyslari mavjud.

Aviaqatnovlar zamonaviy hamda qulay Dreamliner 787 havo kemasida amalga oshiriladi.

Aviachiptalarni aviakompaniyaning rasmiy www.uzairways.com sayti, shuningdek, "UzAirways" mobil ilovasi, Uzbekistan Airways Sales orqali yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling